

STOMATIT KASALLIKLARINI KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNI DAVOLASH USULLARI.

Assistent, Buxoro innavatsion ta'lim
va tibbiyot universiteti

Ostonova Aziza Shuhratovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada stomatit kasalligining kelib chiqish sabablari, uning turlari, klinik ko'rinishlari va zamonaviy davolash usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kasallikni yuzaga keltiruvchi omillar, sog'lom turmush tarzining ahamiyati, shuningdek, xalq tabobatida qo'llaniladigan davolash vositalarining samaradorligi o'rganildi. Maqolada klinik-amaliy metodlar asosida stomatitni erta aniqlash va samarali davolash yo'llari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Stomatit, og'iz bo'shlig'i yallig'lanishi, virusli infektsiyalar, immunitet, davolash usullari, gigiyena, xalq tabobati.

Stomatit o'g'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi bilan kechadigan keng tarqalgan kasalliklardan biridir. Bu kasallik asosan bolalar va immuniteti sustlashgan shaxslarda tez-tez uchraydi. Stomatit turli omillar ta'sirida paydo bo'lishi mumkin: virusli, bakterial yoki zamburug'li infektsiyalar, mexanik jarohatlar, allergik reaksiyalar, vitamin yetishmovchiligi va noto'g'ri og'iz gigiyenasi. Uning turli shakllari bo'lib, har biri o'ziga xos klinik ko'rinish va davolash usullariga ega.

Stomatit og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi bo'lib, og'iz ichida og'riqli yaralar, qizarish, shish, kuyish hissi va noqulaylik bilan kechadigan kasallikdir. Bu holat har qanday yoshda uchrashi mumkin va turli omillar ta'sirida paydo bo'ladi. Stomatit yengil shakldan tortib og'ir holatlarga qadar bo'lishi mumkin.

Stomatitning asosiy turlari

Aftoz stomatit o'g'izda og'riqli oq yoki kulrang yaralar (aftalar) bilan namoyon bo'ladi.

Herpetik stomatit □ herpes virusi tufayli kelib chiqadi, asosan bolalarda uchraydi.

Zamburug□li (kandidamikoz) stomatit □ Candida albicans zamburug□i tufayli paydo bo□ladi, ko□pincha antibiotiklar qabul qilganda yuzaga chiqadi.

Allergik stomatit □ tish pastasi, dorilar yoki oziq-ovqatlarga allergik reaksiya natijasida yuzaga keladi.

Travmatik stomatit □ og□iz bo□shlig□ining mexanik shikastlanishi natijasida rivojlanadi (masalan, tishni noto□g□ri yuvish yoki qattiq ovqatni chaynash).

Kelib chiqish sabablari

Infeksiyalar

Stomatitning eng ko□p uchraydigan sababi bu infeksiyalardir. Quyidagi patogenlar stomatit chaqirishi mumkin:

- Viruslar: Herpes simplex virusi
- Bakteriyalar: Streptokokklar, stafilokokklar
- Zamburug□lar: Candida albicans

Immunitetning pasayishi

Organizmning himoya kuchi zaiflashganda og□iz bo□shlig□i osonlik bilan yallig□lanadi. Surunkali charchoq, stress, yomon ovqatlanish bunga sabab bo□ladi.

Vitamin va minerallar yetishmovchiligi

Boshqa sabablar bilan bir qatorda B guruhi vitaminlari, ayniqsa B12, foliy kislotasi, temir va C vitamini tanqisligi ham stomatit rivojlanishiga olib keladi.

Mexanik shikastlanish

- Og□iz ichini bexosdan tishlab olish
- Juda issiq ovqat yoki ichimlik
- Tish protezlari yoki breketlar ta□siri

Allergik reaksiyalar

Ba□zi tish pastalari, chayqovchi vositalar, yeguliklar yoki dori vositalar stomatit chaqirishi mumkin.

Og□iz gigiyenasiga rioya qilmaslik

Notog◻ri yoki sust gigiyena, tishlarni tozalamaslik, og◻izni chayqamaslik ham bakteriyalarning ko◻payishiga va stomatit rivojlanishiga olib keladi.

Stomatit alomatlari

- Og◻iz ichida og◻riqli yara yoki dog◻lar
- Qizarish, shishish
- Yomon hid (halitosis)
- Oziq-ovqat yeganda og◻riq va noqulaylik
- Ba◻zida tana harorati ko◻tarilishi (og◻ir holatlarda)

Davolash usullari

Tibbiy davo vositalari

- Virusli stomatitda: antivirus vositalar (Atsiklovir, Valatsiklovir)
- Zamburug◻li stomatitda: antifungal preparatlar (Nistatin, Flukonazol,

Klotrimazol)

- Bakterial stomatitda: antiseptik eritmalar (Xlorheksidin, Miramistin), zarurat bo◻lsa antibiotiklar

Mahalliy vositalar

- Og◻riq qoldiruvchi geli: Holisal, Kamistad, Metrogil Denta
- Og◻iz chayqovchi vositalar: Soda eritmasi (1 choy qoshiq soda + 1 stakan iliq suv), romashka, shalfey damlamalari

Uy sharoitida tabiiy davo

- Aloe vera sharbati yara ustiga surtish
- Asal bilan yara ustini yumshatish
- Ekinshak, rayhon damlamasi bilan og◻izni chayish

Umumiy sog◻lomlashtirish choralar

- Immunitetni oshirish uchun vitamin komplekslari qabul qilish
- To◻g◻ri ovqatlanish (sabzavot, mevalar, oqsilga boy mahsulotlar)
- Gigiyenaga rioya qilish

Oldini olish choralar

- Har kuni og◻iz gigiyenasiga amal qilish

- Yaxshi ovqatlanish va vitaminli mahsulotlar iste'mol qilish
- Og'iz shikastlanishidan ehtiyot bo'lish
- Stressdan qochish va immunitetni mustahkamlash
- Tish shifokori ko'rigidan muntazam o'tish

Tadqiqot davomida stomatitning turli shakllariga qarshi qo'llanilayotgan davolash usullari tahlil qilindi. Aytish joizki, stomatitni davolashda yondashuv har bir bemorga individual tarzda olib borilishi lozim. Antibiotiklar faqat bakterial shakllarda tavsiya etilishi kerak, aks holda ularning samarasizligi kuzatiladi. Shuningdek, stomatit takrorlanmasligi uchun profilaktik choralar (gigiyena, ovqatlanish, stressdan saqlanish) muhim ahamiyatga ega. Xalq tabobati usullarini zamonaviy tibbiyot bilan uyg'unlashtirish ijobiy natijalarni berdi.

Xulosa

Stomatit — ko'plab omillar ta'sirida yuzaga keluvchi kasallik bo'lib, u o'z vaqtida aniqlanmasa, yallig'lanish kuchayib, og'izda ovqat yeyish, gapirishda og'riq keltiradi va hayot sifatini pasaytiradi. Shuning uchun stomatit belgilarini o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri davolash, shuningdek, uning oldini olish choralari ko'rish juda muhimdir.

Xulosa qilganda, stomatit — ko'plab sabablarga ega va o'z vaqtida davolashni talab qiluvchi kasallikdir. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Stomatitni erta aniqlash va kasallik sababini to'g'ri aniqlash uchun diagnostika usullarini takomillashtirish.

Bolalar va o'smirlar orasida og'iz gigiyenasi bo'yicha profilaktik tadbirlarni kuchaytirish.

Xalq tabobati vositalarini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga joriy etish.

Har bir bemorga individual yondashuv asosida davolash rejalarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar.

1. Babu B., Uppada U. K., Tarakji B., Hussain K. A. et al. Versatility of diode lasers in low-level laser therapy for the management of recurrent aphthous stomatitis // Journal of Orofacial Sciences. — 2015. — Vol. 7, № 1. — P. 49-53.

2. Лукиных Л.М. Эффективность использования препарата Имудон в комплексе профилактических и лечебных мероприятий при кариесе зубов у детей // Вопросы современной педиатрии. — 2002; 1(2): 80-82.
3. Matyokubovna , R. M. (2023). Diseases of the Mucous Membrane of the Oral Cavity Caused by Prosthetics with Removable Prostheses. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING , 2 (3), 84-86.
4. Montgomery-Cranny J.A.,Wallace A.,Rogers H.J., Hughes S.C., Hegarty A.M , Zaitoun H. Management of Recurrent Aphthous Stomatitis in Children // Dent Update. □ 2015; 42(6): 564-6, 569-72.ссылка
5. Rasulova , M. (2023). RESULTS OF TREATMENT OF CHRONIC RECURRENT HERPETIC STOMATITIS. Science and technology in the modern world , 2 (5), 42–43. Retrieved from [https :// www . in - academy . uz / index . php / zdift / article / view /9941](https://www.in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/9941)
6. Караков К.Г., Власова Т.Н. Особенности диагностики и лечения заболеваний слизистой оболочки полости рта: учебное пособие. — 2011.